

TARIXNI YORITISHDA ESDALIKLARNING O'RNI

1- bosqich magistranti: Umarov Sardor.

Ilmiy rahbar: dots. M.R.Rahmatullayev.

Tarixchilik o'zining an'anaviy mazmun – mohiyatiga ko'ra diqqat – e'tiborini muhim voqealar va ular bilan bog'liq kishilarga qaratadi. Biroq ko'pincha bir holat unitiladi: yirik hodisalar va taniqli ismlarni qayd etuvchi rasmiy siyosiy tarix bilan bir qatorda mazkur voqea – hodisalarning jonli guvohi bo'lgan, ularni boshdan kechirgan insonlarning shaxsiy munosabati, kechirimlari ham mavjud. [1. c.5].

Misol uchun, Germaniyada Ikkinchi jahon urushida qatnashgan askarlarning esdaliklari va xotiralarini juda kech to'plab va ulardan urushni tushunish manbai sifatida foydalana boshladilar. Vaholanki, guvohlar bilan olib boriladigan bunday ish turi zamonaviy tarixchilikda tan olingan vositalardan biridir [1. c.5]. Zero, bugun bitilgan har bir satr, kitob yoki xotiralar bir necha yildan so'ng muhim manbaga aylanishi mumkin.

Yurtimizda yashab kelayotgan ota – bobolarimiz o'z tarixiy taraqqiyoti davrida bir necha bor jabr – zulm va nohaqliklarni guvohi bo'ldilar. Ma'lumki, o'tgan asrning 20-30-yillarida (Sho'rolar davrida) xalqimiz ko'rgan qatag'onlarning analogi oldingi tariximizda bo'lmagan. Ushbu holatlarni sabr-matonat bilan yengib nurli ozod kunlarga intildilar. Ular boshlaridan kechirganlarini ba'zan qog'ozga yozib, tarixga muhrlab ketganlar. Shunday yozib qoldirilgan kechirimlar - esdalik xotiralardan biri "Abdualil Mirzaahmad o'g'lining tarjimai holi va kechirimlari" [2] hisoblanadi. Abdualil Mirzaahmad o'g'lining kasbi o'qituvchilik bo'lib, bir necha yillar davomida geografiya fanidan dars bergan. Kundalikni muallif o'z shevasida yozib qoldirgan. O'zi boshidan o'tkazganlarini krill alifbosida davlat tomonidan chiqarilgan kundalik (ежедневник) ka yozgan. Kundalikni muallif sahifalamagan holda yozgan. Shuningdek, ba'zi o'rinlarda bo'sh sahifalar ham qoldirgan. Bu o'rinda muallif keyinchalik yozish uchun qoldirgan. Ushbu kundalik deyarli o'n bir yil davomida yozib, to'ldirib borilgan. Muallifning vafotidan so'ng (2004 - yil) uning farzandlari tomonidan to'ldirilgan. Ushbu esdalik asosan ko'rgan kechirganlar xususida bo'lganligi bois biz uni keyingi o'rinlarda kundalik deb berdik.

Ushbu kundalik bizga ma'lum bir qishloqning tarixini, ma'lum bir oila shajarasining hamda XX asrning 20 – 30-yillarida amalga oshirilgan kolxozlashtirish hamda qatag'on siyosatini, uning fojealarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Abdualil Mirzaahmad o'g'lining kundaligida o'zining barcha avlodlarining shajarasi, ajdodlari haqida ma'lumot, ota – bobolarining mol – mulki, qatag'on davrida ular mol – mulkining musodara qilinishi, qatag'onga uchraganligi va u bilan bog'liq bo'lgan tarixiy faktlar qayd etilgan.

Dastlab kundalik muallifi va uning nasabiga to'xtalsak. Bu hususida muallif quyidagilarni yozib qoldirgan. "Abdualil Mirzaahmad o'g'li hozirgi Tayloq rayon (tuman – **S.U.**) Bog'izog'on dahasidagi (hozirgi Bog'izag'on qishloq fuqarolar yig'ini – **S.U.**) Xo'jayuz qishlog'ida 20 – mart 1920 – yilda (boshqa bir o'rinda – 21 – mart deb berilgan – **S.U.**) Mo'lla Safarhoji o'g'li Mirzaahmad oilasida olamga kelganman. Bobomiz Mo'lla Safar hoji Mo'lla Qobil o'g'li Buxoro viloyatini

Qorako'l rayon Do'rmon qishlog'ida tug'ilganlar. Katta bobomiz Mo'lla Qobilning otalari Mo'lla Sobirdirlar" [2].

Biz olib borgan izlanishlarimiz natijasida Mo'lla Safar hojiga oid vaqf hujjatlari va sud hukmi nus'hasini topdik [3]. Ular asosan 1907 – 1908 yillarga oid bo'lib, yuqorida keltirilgan ismlar o'z isbotini topgan.

Sud xukmida quyidagi jumlar qayd etilgan:

(Tarjima variantda berilgan)

Hukm. 122 raqam. Kopya

1907 – yilda ... 22 -kunida Jumabozor volost norudniy sudi ba qozi mulla Mir Sodiq (Qozi mulla mir Sodiq Jumabozor narodniye sudini 1907 – yildagi sudyasi Mir Sodiq Mir Maxsumov hisoblanadi.) mulla mir Mansur Rahmon mirzolar Jumabozor volost Hvoja qishloq fuqarolaridankim mulla Harod (Murod) mulla Qobil o'g'lining bir birodari qishloq fuqarosi mulla Safar mulla Qobil o'g'lini ustidan bergan arizasi bo'yicha... [3].

Vaqf hujjatlarida “*Mo'lla Safar ibn Mo'lla Qobil*” nomi bitilgan muhr ham bosilgan [4].

Muallif o'zining ota merosini quyidagicha ta'riflaydi: “Qiblagohimiz Mirzaahmad maxsum Bog'izag'on dahasi Xo'jayuz qishlog'ida turmush qilib 5 gektar yer, jumladan bobomiz Mo'lla Safar hoji bobodan qolgan tegirmonimiz bo'lib, 1929 yil buzilgan va 0,35 ga tok atrofi meva daraxtli bo'lib, ichkari hovli ayvonli uch uy tashqi hovli ikki mehmonxona va besh balol (besh yog'ochli – **S.U.**) bobomizni chillaxonalari, tashqi yog'och darvozaxona, ikki somonxona bir molxona, ichki va tashqi hovlini ajratib turgan darvozaxona va ombor – g'allaxonamiz bo'lgan” [2].

Muallif qishloqda kolxozlashtirish jarayonini ham qayd etgan. “1930 yil 1 avgustida kolxoz (birlashgan) xo'jalikka butun yerimiz, 2 xo'kiz bir otimizni berib, Oxunboboyev nomli kolxozchi bo'ldik” [2].

O'tgan asrning 30 – yillarida yurtimizda ocharchilik holati sodir bo'lgan edi. Bu Abdujalil Mirzaahmad o'g'li xonadonini ham larzaga soldi. Ularning bor mol – mulki kolxozga o'tkazilgan bo'lib, uning oilasi yetishmovchilik tufayli ko'p qiyinchiliklar ko'rgan. “1931 – 1934 yillarda qimmatchilik boshlanib, katta onamiz bir necha bor ochlikdan qiynaldilar” [2].

XX asrning 30 – yillarida yurtimizda amalga oshirilgan qatag'on siyosati Abdujalil Mirzaahmad o'g'li oilasini ham chetlab o'tmadi. U kishi atiga 12 yoshligida otasi, onasi hamda ukasi Hamdamqul bilan birga quloqlashtirildi. Zero, ularning bor mol – mulki yuqorida aytganimizdik kolxozga o'tkazilgan edi.

Qo'lyozmada muallifning qatag'onga uchragan davri va surgun davrida yashagan sharoiti ham qayd etilgan. “Otam, onam bilan men ham 12 yoshimda kolxozni dehqonchilik ishlarida ishlab 10 may 1932 yil tutni qoqib yeb turganimizda qo'shnimiz Jabborov Meliqulni Xo'jayuzdagi qo'shnimiz Obloqulov Muhammadqul bilan otamni Xo'jayuz qishloq masjid hujrasida (hujrada 4 ta parta bor edi) bir notanish shnelli kishi bilan bir varaq xat yozib quloqsiz deb bizlarni otam, onam, men va ukam Hamdamqulni Bog'izog'onga olib kelishdi. Katta onam Qimmatoy qari bo'lgani uchun qoldirildi. Bir bosh bug'oz sigirimizni kolxozga umumlashtirildi” [2].

Qatag'on qiyinchiliklarini ham berib o'tadi. “Bizlar 4 xo'jalik 4 arava bilan ertalab tong yorishayotganda Samarqandning vokzal tomonidagi katta bir qo'rg'on

devorli maydonga 11.5.1932 yilda borib 9 kun bo'ldik. Har kun soat 8 da ro'yxat o'qib, bu kishi quloqlikka layoqatsiz deb o'sha joyda o'nlab kishilarga javob berib yuborildi. 9 nchi kun 20 mayda bir jarlik ichida temiryo'l iziga yutqiziq vagonlarni mahkamlab fortichkani berkitib har vagonga 4 xo'jalikni joylashtirib, 21 may 1932 yil soat 10 da Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa rayoniga tushib 4,5 kmlik joyga piyoda aravaga o'tirib Sovoy sovxoz Xutrlilga bordik. U yerda 8 ta barak o'rtasi qamish bilan suvalib 2 tomonga qaratib 4,5 metrdan qilib bo'linib, suvalib oqlangan har uyni eshigi ustiga nomer yozilgan, uy ichiga qoziq qoqib karavotsimon taxta qoqilgan. Uyni 1 tavoqa og'il eshigidek taxta orasiga sariq qanor bilan yoriqlar berkitilgan. Uy eshigi yonida 1m. 80 sm.lik deraza ramka qoqilgan" [2].

Shuningdek, ushbu qo'lyozma qatag'onga uchragan yillarning iqlimi, qatag'onga uchragan aholining iste'mol qiladigan mahsulotlarini hamda ocharchilikning fojealarini yoritib bergan. "1932 – 33-yillar qishda suv bo'lmay qiyinchilik bo'ldi. Qirg'iziston tog'i kanal boshini muzini eritish – bel ketmon bilan muzni maydalab odamlar oz suv keltirmoqqa harakat qildi. Lekin yo'lda muzlab qolaverdi. Odamlarga sovuq katta salbiy ta'sir qildi.

Ishlovchilarga 600 grammdan bo'lka non, yosh va yaroqsizlarga zaborni bilan 200 grammdan non beradi o'z puliga. Yavg'on pamidor qoq solingan makaron sho'rva 1 porsisi 40, 60 tiyindan. Qishda bo'chka bilan ot qo'shgan aravaga suv keltiradi yetmaydi, qor eritilsa o'tin yo'q. Odamlar bahorga chiqib ko'p iq ochib ketdi va o'tga chiqib, o't yeb 4-5, 6 kunda vafot etaverganlar" [2].

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, bugungi yozilgan oddiy bir esdalik ham yillar o'tib tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan manbaga aylanishi mumkin. Shu boisdan ham ma'lum bir odamlarga tegishli bo'lgan bu kabi tarixiy – xotiraviy qo'lyozmalarni tadqiq etib, ilm ahliga tortiq etsak foydadan holi bo'lmas edi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Тошкент 1966 йил зилзиласи: гувоҳлар хотираси. // нашр этувчи: Маттиас Клингенберг. Тошкент: 2008 й. 5 – бет.

2. Абдужалил Мирзааҳмад ўғлининг таржимаи ҳоли ва кечиримлари. // 5- феврал 1993 – йил. Милодий. Ушбу қўлёзма эсдалик ҳозирда муаллифнинг кичик фарзанди Мирзаев Баҳодир қўлида сақланмоқда.

3. 122 – рақамли суд ҳукми нусхаси.// Самарканд уyezди и области Жумабазарский волосты народные суды. 1907 г.

4. Вақф ҳужжати // Ушбу ҳужжат 1908 йил ёзилган бўлиб, унда Жумабозор волост суди ва Мулла Сафар муҳри босилган.

SamDU tarix fakulteti "Umumiy tarix" kafedrasi professor-o'qituvchilari, magistrant va iqtidorli talabalarning 2013-yildagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand 2014. 63-66 b.